

**SCIENCE  
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342



Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 4. Jild 4.

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**Nº 4 (4) - 2024**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Сайдалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Файбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехruz Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдулаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашурновна - педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибраҳимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баҳодировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна - психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;  
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;  
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Махкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Qurbanov Murodjon Dehqonboy o'g'li</i>	
"KASHKULI SALIMIY" ASARIDA USMONIY HUKMDORLAR TARIXINING YORITILISHI.....	12-17
<i>Ismoilova Diyoraoy Xursandjon qizi</i>	
AMIR NASRULLOH DIPLOMATIYASI .....	18-23
<i>Tursunov Farrukh Gulomovich</i>	
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДАГИ ТОЖИКЛАРГА ХОС УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАР .....	24-28
<i>Usmonaliyev Isroiljon Ibrohimjon o'g'li</i>	
FARG'ONA VODIYSIDA "O'ZBEK" ETNONIMINING TARQALISHI .....	29-34
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i>	
YEVROOSIYO CHORVADOR QABILALARINING FARG'ONA VODIYSIGA KIRIB KELISHI.....	35-40
<i>Eanova Nilufar Pulatovna</i>	
MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKİSTONDA YENGIL SANOAT SOHASIDAGI O'ZGARISHLAR .....	41-46
<i>Abdurahimova Saboqhat Erqash қизи</i>	
БУХОРО АМРЛИГИ ДАВРИДА ЧИРОҚЧИ ТУМАНИНИГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ТАРИХИ .....	47-53
<i>Toshturov Shuxrat</i>	
MUSTAQILLIKKACHA BO'LGAN DAVRDA NAVOIY VILOYATI SANOAT KORXONALARINING EKOLOGIK MUHITGA TA'SIRI .....	54-60
<i>Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich</i>	
AKADEMIK YAHYO G'ULOMOV FAOLIYATI HAQIDA QAYDLAR ("XORAZMNING SUG'ORILISH TARIXI" ASARI MISOLIDA) .....	61-65
<i>Begniyazova Gozzal Allambergenovna</i>	
QORAQALPOQ XALQ ERTAKLARINING YIG'ILISHI VA NASHR QILINISHI .....	66-70

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Sultonov Bahodir Fайзуллаевич, Turaeva Gulizahro Kaxhorovna, Norbўtaev Baxtiёр Abdurahimovich</i>	
СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ДОНЛИ ЭКИНЛАР ХОСИЛДОРЛИГИНИНГ 2024-2027 ЙИЛГАЧА БЎЛГАН ПРОГНОЗ ПАРАМЕТРЛАРИ .....	71-78
<i>Abdiganieva Zarapshan Salieva</i>	
YANGI O'ZBEKİSTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....	79-85
<i>Otaxonova Odinaxon Inomovna</i>	
QORAMOLCHILIK MAHSULOTLARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA OZUQA BAZASINI YAXSHILASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....	86-94
<i>Rakhimov Oйбек Bахтиёрович</i>	
СУҒУРТА ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИДА МАРКЕТИНГ ФАОЛИЯТИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ АСОСЛАРИ .....	95-99
<i>Xushmuradov Oman Namozovich</i>	
СУВ ХЎЖАЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	100-110

<i>Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Karabayev Rustam Zafarovich</i>	
BULUTLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA BIZNES JARAYONLARNI TASHKIL ETISH	
YO'LLARI .....	111-125

<i>Fatmaхова Муниса Абдухамитовна</i>	
ПОНЯТИЕ И ПУТИ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ КРЕДИТНЫМ ПОРТФЕЛЕМ	
КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ .....	126-133

<i>Isayev Jahongir Muzaffarovich</i>	
SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TIZIMINI TA'MINLASH IQTISODIY	
MEXANIZMNING ASOSIY YO'NALISHI SIFATIDA .....	134-140

## 09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Tilavova Umida Qahramonovna</i>	
RAQAMLI JAMIYATLAR TIZIMIDA INFORMATSION ETIKA KATEGORIYA VA	
TAMOYILLARINING AHAMIYATI .....	141-147

<i>Yulchiyev Avazbek Maxamadjonovich</i>	
IJTIMOIY TEKNOLOGIYALAR HAqidagi G'OYALARNING SHAKLLANISH	
EVOLYUTSIYASI .....	148-154

<i>Каримова Гулчехра Абдукаримовна</i>	
ДУНЁ ДИНЛАРИ ВА ТАЪЛИМОТЛАРДА ОТАЛИКНИ ТУШУНИШ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС	
ЖИҲАТЛАРИ .....	155-163

<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i>	
ISLOM FALSAFASIDA DALILLASH VA BAHS YURITISH USULI ZAMONAVIY ARGUMENTLASH	
NAZARIYASI TALQINIDA .....	164-168

<i>Muminov Nozim Naimovich</i>	
THE PHENOMENOLOGICAL APPROACH IS THE KEY TO UNDERSTANDING THE SPREAD AND	
TRANSFORMATION OF SUFISM IN THE WEST .....	169-175

<i>Турсунов Мухиддин Болтаевич</i>	
СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЁЖИ .....	176-180

<i>Mamarasulov Ulug'bek Umirzoqovich</i>	
SPORT TURLARINING FALSAFIY-ESTETIK TAHLILI .....	181-184

## 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Исанова Феруза Тулқиновна</i>	
ЎЗБЕК ТИЛИДА ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ СОҲАСИГА ОИД ЛЕКСИК БИРЛИКЛАР ВА УЛарнинг	
ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ .....	185-191

<i>Петрухина Наталья Михайловна</i>	
КОРАНИЧЕСКИЕ МОТИВЫ В ТВОРЧЕСТВЕ А.С.ПУШКИНА И ЕГО	
СОВРЕМЕННИКОВ .....	192-197

<i>Исаев Оман Рисалиевич</i>	
ЎЗБЕК ВА ИНГЛИЗ ТИЛЛАРИДА ТАКСИС КОНВЕРБИАЛ ВЕРБАЛИЗАЦИЯСИ .....	198-205

<i>Родина Ирина Витальевна</i>	
АНТИНОМИЧЕСКАЯ ПАРА «МЕСТЬ» И «ПРОЩЕНИЕ» В ПОВЕСТИ-СКАЗКЕ Л. БОРОДИНА	
«ГОД ЧУДА И ПЕЧАЛИ» .....	206-211

<i>Ataeva Gulchekhra Bakhtiyorovna</i>	
THE ROLE OF IDIOMS IN ENHANCING BUSINESS COMMUNICATION: A STUDY ON THE USAGE	
OF IDIOMS IN BUSINESS LETTERS .....	212-220

<i>Erkinova Marxobo</i>	
ASSOTSIATIV MAYDON HOSIL QILISHDA LINGVISTIK OMILLARNING O'RNI .....	221-229
<i>Gulyamova Shahzoda Baxtiyor qizi</i>	
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI MATNLARNING SINTAKTIK STRUKTURASI VA PRAGMATIK XOSLANISHI .....	230-234
<i>Batyrkhanova Madina Oybekovna</i>	
THE SOMATIC CULTURAL CODES IN THE STUDY OF ENGLISH, RUSSIAN AND UZBEK PHRASEOLOGISMS .....	235-244
<i>Aslonov Shahram Sherzod ugli, Saidova Marjona Abdimutal qizi</i>	
PECULIARITIES OF TRANSLATION OF POLITICAL TEXTS IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION .....	245-250
<i>Olimova Dilafruzxon Baxtiyorjon qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SUBYEKTIV BAHONING IFODALANISHI .....	251-254
<i>Bobojonov Dilshod Jumaqul o'g'li</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK GAZETA SARLAVHALARIDA PUBLISISTIK USLUB BELGILARINING NAMOYON BO'LISHI .....	255-260
<i>Абдуллаева Нулуфар Рамазоновна, Шаймарданова Мухлиса Усмановна</i>	
СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА “РАСТЕНИЕ” В СОПОСТАВЛЯЕМЫХ ЯЗЫКАХ .....	261-266
<i>Xayrulloeva Sitora Lutfulloevna</i>	
PSYCHOLOGICAL NOVELS OF US AND THE DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGYSMS .....	267-272
<i>Qudratova Muxiba Kamolovna</i>	
“LYUIS KERROLLNING ALISA MO' JIZALAR MAMLAKATIDA ASARIDAGI HAYVON OBRAZLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI” .....	273-279
<i>Убоженко Анна Станиславовна</i>	
ОСОБЕННОСТИ ТЮРКСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ .....	280-285
<i>Tukhtayeva Наргисхон Исамутдиновна</i>	
ОТРАЖЕНИЕ ДУХОВНОГО УПАДКА ОБЩЕСТВА И ЕГО ПОСЛЕДСТВИЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ .....	286-292
<i>Gulnora Xolmurodova Sattorovna, Bo'ronova Mekkamtosh Xoliqulovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK LISONIY MANZARASIDA MAQOLLARNING O'RNI .....	293-297
<i>Алибаева Лола Намазовна</i>	
ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В РАССКАЗАХ Л. ПЕТРУШЕВСКОЙ .....	298-303
<i>Eshqurbanova Aziza Bozor qizi</i>	
DIALOGIK NUTQDA SAVOLLARNING IFODALANISHI .....	304-308
<i>Norova Rahima Fayzulloevna</i>	
O'ZBEK VA INGLIZ ADABIY ERTAKCHILIGIDAGI SEHRLI VOSITALARNING QO'LLANISHIDA O'XSHASH JIHATLAR .....	309-316
<i>Egamberdiyeva Iroda Abdurahimovna</i>	
TRANSLATIONS OF HISTORICAL WORKS INTO ENGLISH .....	317-323
<i>Axmedova Adolat Ravshan qizi</i>	
GASTRONOMIYA TUSHUNCHASI HAMDA GASTRONOMIK REKLAMA MATNLARI .....	324-330

*Asqarova Madina Boymurod qizi*

KORPUS LINGVISTIKASIDA MATN ANNOTATSIYASINING LINGVISTIK MUAMMOLARI ..... 331-334

*Калниязов Есемурат Шамшетович*  
ГОСТЕВОЙ ЭТИКЕТ И СИСТЕМА ЦЕННОСТЕЙ ..... 335-342

## **12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

*Bahodir To'raev*

HUQUQIY MADANIYAT VA HUQUQIY TARBIYANING DEMOKRATIK DAVLAT RIVOJLANISHIDAGI ROLI ..... 343-351

*Tursoatov Содик*  
РАФБАТЛАНТИРУВЧИ ҲУҚУҚИЙ СИЁСАТ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ ..... 352-357

*Хидиров Фурқат Шуқуруллаевич*  
МАҲАЛЛА ҲУҚУҚ-ТАРТИБОТ МАСКАНИ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ТАРТИБИННИГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ ..... 358-363

*Rahimbaev Уткир Файзуллаевич*  
ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ КРИТЕРИЕВ ОЦЕНКИ ИНФРАСТРУКТУРЫ И СЕРВИСА ДЛЯ ТУРИСТОВ ..... 364-372

*Tursynbaev Азизбек Халмурзаевич*  
МЕЖВЕДОМСТВЕННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КАК СПОСОБ РЕАЛИЗАЦИИ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ ..... 373-377

*Yakubov Abduraxmon Turayevich*  
TA'LIM HUQUQINING HUQUQIY SAVODXONLIKNI AMALGA OSHIRISHDAGI O'RNI ..... 378-382

*Rasulov Salimbek Baxtiyor o'gli*  
YEVROPA KENGASHINING KORRUPSIYA UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK BO'YICHA KONVENTSIYASI – KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING ZAMONAVIY XALQARO HUQUQIY ASOSLARIDAN BIRI SIFATIDA ..... 383-387

## **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Хайров Расим Золимхон угли*  
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА ..... 388-395

*To'rayev Panji To'xtayevich*  
OLIY TA'LIM MUASSASASIDA KURASHCHILARNI PSIXOLOGIK JIHATDAN TAYYORLASH ..... 396-400

*Xushnazarova Ma'mura Nodirovna*  
TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA IJTIMOIY FAOLLIKNING AHAMIYATI ..... 401-406

*Yuldasheva Sayyora Aliaskarovna*  
TA'LIM TIZIMIDA INGLIZ TILINI INTEGRATSION O'QITISH ..... 407-411

*Turdimurodov Dilmurod Yo'l doshevich*  
SPORT MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA PEDAGOGIK NAZORATNING AHAMIYATI ..... 412-418

<i>Абдувахобов Искандер, Гизатулина Ольга Ивановна</i>	
ОРГАНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В СМЕШАННЫХ СРЕДАХ	
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ВУЗА .....	419-426
<i>Назарова Озода Шавкатовна</i>	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В	
ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ .....	427-432
<i>Pirnazarova Sevara Doniyor qizi</i>	
OLIY O'QUV YURLARIDA XORIJY TILNI O'QITISHDA O'YIN USULLARINI	
QO'LLASH .....	433-438
<i>Ko'ziyeva Gulnoza Maxamadaliyevna</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK SALOHIYATINI OSHIRISH	
METODIKASI .....	439-444
<i>Умирзокова Сурайё</i>	
ТАЛАБАЛАРНИНГ КИНЕТИК ИНТЕЛЛЕКТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ХОРИЖИЙ	
МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИ .....	445-451
<i>Olimova Nigora</i>	
MUVAFFAQIYATLI O'RGANISHDA SINFNI BOSHQARISH KO'NIKMALARINING	
AHAMİYATI .....	452-463
<i>Nabiyeva Firuza Odil qizi</i>	
"ELEKTROMAGNETIZM" BO'LIMINI O'QITISHDA AMALIY MASHG'ULOTLARNING AHAMİYATI	
.....	464-471
<i>Sobirova Oygul Alimovna</i>	
BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARIDA METODIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING	
MAVJUD HOLATINI TAHLILIY BAHOLASH .....	472-479
<i>Shermatov G'ulom Kaxxorovich</i>	
IMPROVING THE TECHNIQUE OF BADMINTON SPORTS TRAINING .....	480-486
<i>Shamirzayeva Zarifa Xudoyorovna</i>	
TALABALARDA KASBIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANISHIDA MIKROTA'LIM O`QITISH	
TEXNOLOGIYASINING SAMARALI JIHATLARI .....	487-492
<i>Ziyadullayeva Dilafruz Xudayberdiyevna</i>	
O'SMIRLARDA YETAKCHILIK XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETINSIYAVIY	
FAOLIYATNING PEDAGOGIK ASOSLARI .....	493-498
<i>Muydinov Firuzjon Farxodjonovich</i>	
TIBBIY TA'LIM TALABALARIDA MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH	
METODIKASI .....	499-505
<i>Egamberdiyeva Feruza Abdumannonovna</i>	
MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN DASTURIY TA'MINOTNI	
LOYIHALASH .....	506-510
<i>Худойбердиева Дурдона Баходир қизи</i>	
ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ В РАБОТЕ С ОДАРЕННЫМИ	
ДЕТЬМИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА .....	511-516
<i>Курбонов Дониёрбек Каҳрамонович</i>	
ОБУЧЕНИЕ ПОЭЗИИ С ПРИМЕНЕНИЕМ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО	
МЫШЛЕНИЯ .....	517-524

*Shamsiddinov G'iyos Xusniddin o'g'li, Jurayeva Feruza Baxtiyor qizi*  
IQTISODIYOT YO'NALISHI TALABALARIGA EKONOMETRIKA FANINI O'TISHNING  
INTERAKTIV USULLARI ..... 525-532

*Эрназаров Алишер Эргашевич, Бекмурадов Зариф Хуррамович*  
ЎҚУВ МАШГУЛОТЛАРИНИНГ МОДУЛЛИ ВА ЛОЙИХАЛАШТИРИЛГАН ТУРЛАРИ ҲАМДА  
АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ..... 533-539

**Ismoilova Diyoraoy Xursandjon qizi**  
Termiz davlat universiteti, 2-kurs magistri  
e-mail: [diyoraoy@mail.ru](mailto:diyoraoy@mail.ru)

### **AMIR NASRULLOH DIPLOMATIYASI**

**Annotatsiya.** Maqolada Amir Nasrullo olib borgan diplomatik munosabatlari va shu yo'nalishdagi chora-tadbirlar o'z ifodasini topgan. Amir Nasrullo tashqi siyosiy hamda diplomatik masalalarda hukmdor sifatida Buxoro manfaatlarini ustun qo'yib aql bilan faoliyat yuritgan. Shu asnoda uning Eron, Rossiya, Angliya bilan diplomatik munosabatlari muhim ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** Muhammadshoh, turkmanlar, Jozef Vulf, Charlz Stoddart, Artur Konolli, mustamlakachilik rejali, ochiq siyosat.

---

**Ismailova Diyoraoy Khursanjon kizi**  
Termez State University, 2nd year master student

### **DIPLOMACY OF AMIR NASRULLAH**

**Abstract.** In the article are expressed the diplomatic relations conducted by Amir Nasrullah and measures in this direction. Amir Nasrullah, as a ruler in foreign political and diplomatic matters, acted intelligently, putting the interests of Bukhara first. In this context, are important his diplomatic relations with Iran, Russia, England.

**Key words:** Muhammad Shah, Turkmens, Joseph Wolfe, Charles Stoddart, Arthur Connolly, colonial plans, open policy.

---

**Исмаилова Диёраой Хурсанджон кизи**  
Термезский государственный университет, магистр 2 курса

### **ДИПЛОМАТИЯ АМИРА НАСРУЛЛЫ**

**Аннотация.** В статье изложены дипломатические отношения, проводимые Амиром Насрулло, и меры в этом направлении. Амир Насрулла как правитель во внешнеполитических и дипломатических вопросах действовал разумно, ставя интересы Бухары на первое место. В этом контексте важны его дипломатические отношения с Ираном, Россией, Англией.

**Ключевые слова:** Мухаммад Шах, туркмены, Джозеф Вулф, Чарльз Стоддарт, Артур Коннолли, колониальные планы, открытая политика.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I4Y2024N02>

**Kirish.** Buxoro xonligida Amir Nasrullo hokimiyatga kelgach asosiy e'tiborini xonlikni markazlashtirishga, o'z manfaatini davlat va xalq manfaatidan ustun qo'ygan saroy amaldorlariga qarshi kurashga, davlat hududini kengaytirishga qaratgan. Shunga qaramay Amir Nasrullo tashqi aloqalarga ham alohida e'tibor bergen. Buxoro amirligidagi savdo va diplomatik munosabatlari tarixida amir Nasrulloning ham faoliyatini alohida ta'kidlab o'tish kerak.

Buxoro amirligi tashqi siyosati tarixida Eron davlati o'rtasidagi diplomatik aloqalar ham muhim o'rinni tutgan. Manbalarda Eron davlati bilan diplomatik aloqalarni mustahkamlashda Amir Nasrullohning faoliyati alohida ko'rsatib o'tilgan. Xususan, ta'kidlab o'tish joizki Amir Nasrullo tashqi siyosiy va diplomatik masalalarda muhim geopolitik ahamiyatga ega bo'lgan masalalarni hal qilishga erishadi. Bu albatta amirning shaxsiyati bilan bog'liq deb izohlash mumkin. Chunki Amir Nasrullo tabiatan juda qat'iyatli inson bo'lgan. Bu haqida bir qancha manbalarda ham eslatib o'tilgan.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Ahmad Donishning yozishicha, "Amir Nasrullo vazmin va qo'rmas, qattiqqa'l va zukko hukmdor edi. U o'z hukmronligi davrida el va ulusda fitna chiqarishda nom qozongan, markaziy hokimiyatga qarshi urug'-qabilalarning turli isyonlarida qatnashgan yoki ilgarigi amirlarga nisbatan ko'rnamaklik qilganlarning barchasini jazoladi va yo'q qildi. O'z tarafadorlariga esa ko'p yaxshiliklar qildi va mehribonlik ko'rsatdi. Uning mulklari kengaygan. Qo'qondan Kesh (Shahrisabz)gacha bo'lgan butun mamlakatlar unga bo'yungan". [1]

1844-yilda Erondan kelgan Muhammadshoh boshchiligidagi elchilik faoliyatini ko'rib chiqadigan bo'lsak yuqorida fikrimiz o'z isbotini topadi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha ushbu elchilik zimmasiga quyidagi 3 ta vazifa yuklatilgan: [6]

1. Buxoroda saqlanayotgan eronlik asirlarni ozod qilish vazifasini muhokama qilish;
2. Turkmanlar hamda Marv viloyati bilan bog'liq masalalarda kelishuvga erishish;
3. Buxoroda tutqunlikda bo'lgan ingliz fuqarosi Jozef Vulfni ozod qilish masalasini ko'rib chiqish.

Eron elchisi Buxoroda saqlanayotgan asirlarni qadimiyligi an'ana va odatlarga ko'ra ulamolarning fatvolari asosida davom etib kelayotgani, asirlar naqd pulga sotib olingani sababli Eronga qaytarilmasligini inobatga olib, bunday huquqiy muammolarni bartaraf etish uchun ikki davlat o'rtasida o'zaro aloqalarni yanada mustahkamlashga qaratilgan amirning takliflarini qabul qiladi. Eron elchisi ikkinchi masala, ya'ni Marv viloyatidagi siyosiy ahvol masalasida Buxoro amiri unga ushbu hududdagi siyosiy ahvolning naqadar murakkabligini tushuntirib, Marv hokimi aholi talabi asosida tayinlanganini, turkman urug'lari Buxoro amirligiga qarshi harakatlar uyuştirganini ta'kidlab, Marv vohasini qayta obod qilish zarurligini, aks holda, Marvni hech kim boshqara olmasligini bildiradi. Uchinchi masala bo'yicha munozara ancha keskin kechadi, chunki bu masala inglizlarning Buxoroda, umuman, O'rta Osiyodagi, joususlik faoliyati bilan bog'liq edi. O'rta Osiyoda joususlik faoliyatini amalga oshirish uchun Eron orqali polkovnik Charlz Stoddart (1806–1842) va kapitan Artur Konolli (1807–1842)lar yuborilgan edi. Ushbu ikki elchi amir Nasrullo tomonidan qatl etilgan bo'lib, amir ularning yovuz niyatda ekanligidan boxabar edi.

Ikki elchini ozod etish maqsadida Eron vositachiligidan foydalangan inglizlar Eron orqali Joseph Wolffni yuboradi. Joseph Wolff ham ikki joususning sherigi sifatida qamoqqa olinadi. Eron elchisi Buxoro amiriga ingliz fuqarosi Joseph Wolffni izzat-ikrom bilan topshirishni so'raydi.

**Muhokama.** Amir Nasrullo tashqi siyosiy va diplomatik munosabatlarda Buxoro amirligining xalqaro aloqalardagi obro'sini, davlatning ichki va tashqi xavfsizligi masalalarini, Eron davlati bilan bo'ladigan keyingi aloqalarni mustahkamlash, o'z navbatida Eron—Buyuk Britaniya siyosiy munosabatlarini ijobiylashtirish maqsadida Joseph Wolffni hamda Eron asirlarini ozod qilishga qaror qiladi.

Amir Nasrullo Eron elchisi bilan Subhonqulibekni sovg'a-salomlar bilan Eron davlatiga elchi qilib yuboradi. Eron elchisi Subhonqulibekni, Joseph Wolffni va eronlik asirlarni olib, Buxoroni tark etadi.

Buxoro amirligi bilan Eron davlati o'rtasidagi munosabatlarda eng o'tkir masalalardan biri — asirlar masalasi bo'lganligi sababli, bunday omil ikki davlatning o'zaro tashqi siyosiy va diplomatik aloqalarining rivojiga to'siq bo'lib turardi. Ikki davlatning hech biriga itoat etmaydigan ko'chmanchi qabilalar va urug'lar karvon yo'llarida va chegara hududlarida turli talon-torojlarni amalga oshirib, asirlarni Buxoro yoki boshqa shaharlar bozorlarida sotardilar. Bunday ko'rinishdagи insonlar savdosidan taraflar, ya'ni sotuvchi va oluvchilar manfaatdor bo'lganligi sababli qul savdosini butunlay barham toptirish mushkul edi. Ushbu muammoning ijtimoiy-siyosiy mohiyatidan tashqari, g'oyaviy asosi ham mavjud bo'lib, u sunniy va shia mazhablari o'rtasidagi tafovutlar bilan belgilanar edi.

Bunday fikrning bahsli munozaraga mansubligini inobatga olib, ikki davlat o'rtasida tinch-totuvlik aloqalarini o'rnatish maqsadida Amir Nasrullo vaqtiga vaqt bilan Usmonlilar imperiyasi sultoniga elchilar yuborib, masalaning shar'iyligini aniqlashga harakat qilar va uning huquqiy yechimini topish maqsadida buyuk ulamo-yu mujtahidlarning asarlarini yuborishni iltimos qilar edi. Mazkur huquqiy muammoni bartaraf etishga imkon beruvchi huquq manbalarini olib kelish amir tomonidan ikki elchilikka topshirilgan edi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Hindistonda mustahkam o'rnatish o'lgan inglizlar o'zlarini tuzgan Ost-Indiya kompaniyasi orqali mustamlakachilik rejalarini amalga oshira boshlaydilar. Shu maqsadda Ost-Indiya kompaniyasining maxfiy topshiriqlari bilan Buxoroga 1821-1825-yillarda Uilyam Murkroft, Jorj Trebek; 1831-1832-yillarda Aleksandr Byorns; Charlz Stoddart va Artur Konollilar yuboriladi. [3] Bu xabar o'z navbatida Rossiya hukumati uchun tashvishli hisoblanardi. Chunki Rossiya ham O'rta Osiyo hududiga katta qiziqish bildirayotgan edi. Shu sabab ingliz-rus munosabatlari juda keskinlashib ketadi. Rus hukumatiga yetib kelgan ma'lumotlar Rossianing Turkistonda o'z ta'sirini o'rnatish borasida faol harakatlar boshlashiga turtki bo'ladi. Shu tarzda Rossiyadan Buxoroga bir necha marta elchilik missiyalari yuboriladi. Shulardan biri bu Butenev missiyasidir.

Butenev missiyasi — Buxoroga yuborilgan chor hukumati joususlik missiyasi (1841-1842). Uning asosiy vazifasi Afg'oniston va Eron orqali Turkistonga kirishga intilayotgan Angliyaga to'sqinlik qilish, Buxoro xonligida Rossianing iqtisodiy va siyosiy ta'sirini mustahkamlash, Buxoro tuprog'ining geologik tuzilishini o'rganish va yer osti boyliklarini tekshirish, Buxoro xonligi bilan Rossiya o'rtasida savdo va elchilik munosabatlarini mustahkamlovchi shartnomaga tuzish, savdo-sotiqqa oid ma'lumotlar toplash, Buxoro va unga qo'shni mamlakatlar to'g'risida ma'lumot yig'ish kabilardan iborat edi. Butenev missiyasi tarkibida K. F. Butenev (elchi), F. Bogoslovskiy (tog' injeneri), N. V. Xanikov (geograf), A. Leman (naturalist), Ya. Yakovlev (topograf), Plotnikov (sharqshunos), Chalpanov va Petrov (tog' texniklari), K. Kozlov va Lepeshkov (oltin yuvuvchi mutaxassislar), Aitov (tarjimon) hamda o'nta kazak bo'lgan. Butenev missiyasi 1841-yil 15-mayda Orenburgdan chiqib, 1841-yil 5 avgustda Buxoroga yetib keldi. Butenev missiyasi Zarafshon vodiysida ko'pgina geologik tekshirishlar olib bordi. Natijada yuqori Zarafshonda yer osti boyliklaridan: temir, mis, ko'mir, qo'rg'oshin, grafit, feruza va hatto oltin, kumush borligi aniqlandi. Ammo Butenev missiyasining Buxoro xoni bilan savdo va diplomatik shartnomaga tuzish yuzasidan olib borgan muzokalarari uncha natija bermadi. Shunga qaramay, Butenev missiyasi a'zolari Buxoro to'g'risida juda boy geografik, etnografik, tabiiy va tarixiy ma'lumot to'pladilar. Topograf Ya. Yakovlev missiya bosib o'tgan marshrutlarni chizgan va Buxoro xonligining xaritasini tuzgan. 1843-yilda N. V. Xanikovning "Buxoro xonligi tavsifi" kitobi bosilib chiqdi. K. F. Butenevning "Buxoro mineral boyliklari", "Buxorodagi po'lat toplash usuli haqida mulohazalar", "Buxorodagi rus konchilik zavodlari mahsulotini sotishni rivojlantirish to'g'risida" (1842) nomli ilmiy maqolalari hamda

A. Lemanning nemis tilida 1841—42 yillarda Orenburgdan Buxoro va Samarqandga sayohati haqida asari bosilib chiqdi.

Yana bir elchilik missiyasi bu Ignatyev boshchiligidagi missiyadir. Ignatyev missiyasi — rus podsho hukumati tomonidan Xiva xonligi va Buxoro amirligi bilan siyosiy hamda savdo munosabatlari o'rnatish bahonasida, aslida josuslik maqsadida polkovnik N. P. Ignatyev boshchiligidagi yuborilgan elchilar missiyasi (1858). Ignatyev missiyasi 1858-yilning mayida 50 kishilik qo'riqchi otryad bilan Orenburgdan chiqib, Amudaryo yoqalab, iyul oyida Xivaga keladi va xon hukumati bilan savdo shartnomasi tuzadi. So'ngra Buxoroga kelib imtiyozli savdo shartnomasi tuzishga, zindonda yotgan rus fuqaro va asirlarni ozod etishga erishadi. Ignatyev missiyasi to'plagan ma'lumotlar Turkistonning Rossiya tomonidan istilo etilishida muhim rol o'yangan.

XIX asrning 20–40-yillarida Buxoro Angliya va Rossiyaga nisbatan ochiq siyosat yuritgan. Har ikki imperianing turli josluslari sayohatchilar, elchilar, harbiylar, olimlar niqobi ostida Buxoroda tez-tez bo'lib, amirlik hududi, aholisi, harbiy kuchlari, davlat boshqaruvi va mansabdor shaxslar haqidagi ma'lumotlarni to'plashgan. Amir Nasrullo ingлиз siyosatchilarining asl niyatini payqagach, ularga nisbatan munosabatini va xayrixoh siyosatini o'zgartirgan. U Rossiya imperiyasiga qarshi kurashda Buyuk Britaniya tomonining „xolis“ yordamini qat'iy rad qilgan. Ingliz „elchilik missiyalari“ niqobi ostidagi josluslar Buxoroda bo'lib, Rossiyaga qarshi Angliya homiyligidagi Buxoro – Xiva – Qo'qon ittifoqini tuzishga behuda urinishgan. O'zining surbet qiliqlari va dimog'dorligi, takabbur va kalondimog'ligi, sharqona diplomatiya qoidalarini nazar-pisand qilmaganligi (Ark oldidan ot minib o'tishi, rasmiy qabul marosimida o'zini tuta olmasligi va boshqalar) oqibatida amirning farmoni bilan polkovnik Charlz Stoddart zindonga tashlanadi va 1842-yil 17-iyunda boshqa ingliz zobiti Artur Konolli bilan birgalikda Buxoro shahrida qatl qilinadi. [4] Buxoro ulamolari har ikki ingliz zabitiga ular islam dinini qabul qilishsa, gunohlari kechirilishi va o'zları tirik qolishlarini aytishganda, ingliz zabitlari rad javobini berishgan. Ingliz zabitlarining o'ldirilishi amir Nasrulloning Yevropa davlatlari, xususan, Angliya bilan munosabatlari yomonlashishiga sabab bo'ladi.

1830-yillarning boshlarida Buxoro amirligiga Vest-Indiya kompaniyasining topshirig'i bilan kelgan leytenant Aleksandr Byorns bilan olib borgan muzokaralar asosida Buyuk Britaniya imperiyasi bilan qisqa muddat bo'lsada, o'zaro hamkorlik munosabatlari o'rnatilgan.

Amir Nasrullo ingliz siyosatdonlarining asl niyatini payqagach, ularga nisbatan munosabatini va xayrixoh siyosatini o'zgartirgan. U Rossiya imperiyasiga qarshi kurashda Buyuk Britaniya tomonining „xolis“ yordamini qat'iy ravishda rad qilgan. Ingliz „elchilik missiyalari“ niqobi ostida joslardan leytenant Alexander Byorns(1838), mayor Joseph Wolf(1843), polkovnik Charles Stoddart (1838) va kapitan Arthur Conolly (1842) Buxoroda bo'lib, Rossiyaga qarshi Buyuk Britaniya homiyligidagi Buxoro-Xiva-Qo'qon ittifoqini tuzishga behuda urinishgan. O'zining surbet qiliqlari va dimog'dorligi, mutakabbir va kalondimog'ligi, sharqona diplomatiya qoidalarini nazar-pisand qilmaganligi oqibatida amirning farmoni bilan polkovnik Charles Stoddart zindonga tashlanadi va 1842-yil 17-iyunda boshqa ingliz zobiti kapitan Arthur Conolly bilan birgalikda Buxoro shahrida qatl qilinadi. Buxoro ulamolari har ikki ingliz zabitiga ular islam dinini qabul qilishsa, gustohliklari kechirilishini va o'zları tirik qolishlari mumkinligini aytishganda, ingliz zabitlari rad javobini berishgan. Ingliz emissarlarining o'ldirilishi Amir Nasrulloning Yevropa davlatlari, xususan, Buyuk Britaniya bilan munosabatlari darz ketishiga sabab bo'lgan<sup>[30]</sup>. Keyinchalik, Amir Nasrullo davlatdan inglizlarning katta boyliklarni olib ketishiga to'sqinlik qilish maqsadida Buxoro amirligi savdogarlariga naqd pulga inglizlar bilan savdo qilishni qat'iy taqiqlab qo'yan.

Ta'kidlab o'tish joizki, XIX asrning ikkinchi yarmida o'zga mamlakatlar hududini istilo qilish, mustamlakachilik jarayonlari avj olgan bo'lib, O'rta Osiyo jumladan, Buxoro amirligi ham bu voqealardan chetda qolmagan. Shunga qaramasdan milliy mustaqillikni saqlash, diniy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy qaramlik holatiga tushib qolmaslik maqsadida Buxoro amirligining diniy va madaniy jihatdan yaqin bo'lgan Usmoniyalar saltanati bilan aloqalarni mustahkamlashga alohida ahamiyat bergen. 1787-1791-yillarda bo'lib o'tgan Rossiya-Usmoniyalar urushi Rossiyaning Buxoro amirligidagi mavqeiga kuchli ta'sir qildi. Bu holatni o'sha paytlarda Buxoroda bo'lgan Usmoniyalar elchilari har tomondan o'rganib chiqadi. Yuzaga kelgan bunday siyosiy vaziyatdan Usmoniyalar hukmdorlari unumli foydalanishgan va Buxoro amirligi bilan yaqinlashishga urinishgan. Usmoniyalar imperiyasi va O'rta Osiyo oralig'idagi masofaning uzoqligi, buning ustiga ikki o'rtada shia mazhabidagi Eron davlatining mavjudligi va bu mamlakat bilan raqiblik kabi omillar Usmoniyalar va Buxoro davlatlari o'rtasidagi munosabatlarning yetarli darajada rivojlanishiga asosiy to'siqlardan biri edi. Shu sababli, Usmoniyalar saltanatiga Buxoro xususidagi ma'lumotlar ancha kech, yoki aniq bo'limgan holda yetib borgan.

Ma'lumki, Usmoniyalar davlati 1792-yilgi Rossiya bilan tuzgan sulhga ko'ra, o'zaro urushlariga O'rta Osiyo xonliklarini jalg etmaslik majburiyatini olgan edi. Suning uchun Turkiya hukmdorlarining XIX asr o'rtalarida xonliklarga yozgan maktublarida Rossiyaga qarshi ittifoq to'g'risida fikrlar uchramaydi.

**Natija.** Amir Nasrullohning otasi Amir Haydar davrida O'rta Osiyodagi siyosiy voqealarni Usmoniyalar sultonlari doimiy kuzatib turadi. Amir Haydar hukmronliging dastlabki yillaridanoq Usmoniyalar davlati bilan elchilik aloqalarini o'rnatishga harakat qiladi va taxtga o'tirganligini bildirish maqsadida Devonbegi Eshmuhammad va Mirza Muhammadyusufni Istanbulga yuboradi. Elchi: "Amir Haydar hazratlarining taxtga chiqqanligini bildirgani keldim," deya o'zi bilan olib kelgan amirning nomasini va sovg'a-salomlarni topshiradi. [2] Shundan so'ng turk sultonlaridan quyidagi mazmunda javob olinadi: "Otangizning vafotini eshitib, qayg'uga botdik. Qayg'umizni sizning taxtga chiqqaningiz bir oz bo'lsa-da yengillashtirdi. Izhor qilgan do'stligingiz davomiy bo'lsin". Buxoro amirining maktubiga sulton Salim III (1789-1807) befarq bo'limgan. U ham Amir Haydar kabi ikki davlat o'rtasida o'zaro aloqalar rivojlanishi tarafdoi bo'lgan. Amir Haydar 1815-yilda Usmoniyalar sultoni Mahmud II (1808-1839) huzuriga Mirza Muhammadyusufni elchi qilib yuboradi. Amir Haydar maktubida Maximud II ga nisbatan aytilgan sermulozamat so'zlar va maqtovlardan so'ng, o'ylab: "Biz o'zimizning taqvodor va fazilatli vakilimiz Mirza Muhammad Yusuf qo'riqchiboshini Arabistonning muqaddas yerlarini ziyorat qildik", - deyiladi. Shu bilan birga, maktubda fransuzlarning Rossiyaga tajovuzi, unga qarashli yerlarda buxorolik savdogarlarning mol-mulki talangani va ular orasida yuqorida zikr qilingan Mirzaning ham 1.500 tillolik mollari bo'lgani, sulton o'zining yuksak nufuzidan foydalanib o'sha mollarga umid bog'lab, umidvor bo'lib qolganligi bayon qilingan. Amir Haydar Sharqiy Hindiston kompaniyasi buni uning Usmoniyalar sultonidan "...bu yerda fiqh kitoblariga muhtojlik kuchayib ketganligi", ya'ni qattiq tartib-intizom o'rnatish lozimligi, "Hindiston bilan ana shu masalaga oid bir qancha kitoblar keltirildi-yu, ammo ular yetarlilik qilmayotganligi" aytib o'tilgan. Manbalardan ma'lumki, Usmoniyalar nafaqat Buxoro amirligi, O'rta Osiyodagi boshqa xonliklar bilan aloqalarini buzishni istamagan. Chunki O'rta Osiyo xonliklari Usmoniyalar sultonining islom olamidagi mavqeini tan olar, u bilan aloqalar o'rnatishga urinishar edi. [7] Jumladan, Buxoro amirlari Usmoniy sultonlariga elchilar yuborib, muammoli masalalarning shar'iyligini aniqlashga harakat qilar va uning talqini uchun kerak bo'lgan buyuk mujtahidlarning asarlarini yuborishni so'rab turishgan. Shunday topshiriqlardan biri Amir Haydar tomonidan Eron va Usmoniyalar davlatlariga yuborilgan Ali Rizo elchiga ham

topshirilgan. Buxoro amiri maktubida o'zaro savdo to'siqlarini bartaraf qilish, savdo karvonlarini talovchilarga nisbatan muayyan chora-tadbirlar ko'rish kabi aniq vazifalar ham qayd qilingan. Amir Haydarning ushbu maktubidan ko'rinib turibdiki, ikki mamlakat o'rtasida o'zaro totuvlik va hamjihatlik istagi, azaldan davom etayotgan savdo-sotiqni rivojlantirish, ikki o'rtadagi manfaatdorlik aloqalarini mustahkamlashga intilish kabi jihatlar diplomatik munosabatlarning asosi bo'lgan.

**Xulosa.** Shu tariqa Buxoro amirligi ham siyosiy, ham ijtimoiy jihatdan tashqi diplomatik aloqalarni olib borgan. Amir Nasrullo o'z hukmronligi davrida diplomatik aloqalarga jiddiy e'tibor qaratgan. Chunki u hukmdor sifatida o'sha davrning siyosiy hamda savdo munosabatidan kelib chiqib diplomatik aloqalar amirlikning hayotida muhim rol o'ynashini juda yaxshi tushungan. Bundan ko'rinib turibdiki Amir Nasrullo xalq va davlat manfaatini ko'zlovchi davlat rahbari bo'lgan.

### Adabiyotlar/Литература/References

1. Ahmad Donish. Risola yoxud mang'itlar xonadoni sultanatining qisqacha tarixi / Tarjima, izohlar va kirish so'zi muallifi Qiyomiddin Yo'ldoshev. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2014. – 144 b.
2. Begnayev D. XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligining Rossiya bilan savdo aloqalari // ToshDU xabarlari. 1998. 2-son. 36–39-b.
3. To'rayev H. Buxoro tarixi: o'quv qo'llanma. – Buxoro: Durdon, 2020. 201–207-b.
4. История Узбекистана (XVI – первая половина XIX в.) / Ответ. редактор: Д.А. Алимова. – Т.: Фан, 2012. С. 175–193
5. O'zbek diplomatiyasi tarixidan (Tarixiy ocherklar va lavhalar) / Akademik M.M. Xayrullayev tahriri ostida. – T.: 2003. 230-b.
6. Vamberi A. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. Ikkinci jild. – T.: Info Capital Group, 2019. 155–206-b.
7. Гулямов Х. Из истории дипломатических отношений России с Бухарским ханством в XVIIIв.-Т.:Фан. 1992. -82 с.(2. Gulamov H. From the history of diplomatic relations between Russia and the Bukhara Khanate in the 18th century -T. : Fan. 1992.-82 p.)
8. Bibirajab, Y., & Niginabonu, S. (2024). Historical Geography of Amir Timur State. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(1), 7-10
9. Yangiboeva D.U. The Effect of the Russian Empire on the Political Life of the Emirate of Bukhara (1868-1917) //The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(10), 2020. R.171-177.
10. Yangiboeva D.U. Social Activity of Kazi Sharifjon Maxdum //Middle European Scientific Bulletin, Vol 13 (2021). P. 195-199.
11. Yangiboeva D.U. Intellectual Heritage of Sharifjon Maxdum Sadri Ziyo /International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. ISSN 2364-5369 Volume 8, Issue 12 Desember, 2021. Pages: 495-504

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***Nº 4 (4) – 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масьулияти чекланган жамияти**

**Таҳририят манзили:**  
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).